

**HUQUQLAR TO‘G‘RISIDAGI QONUN LOYIHASI BO‘YICHA MUNOZARADA**  
**FEDERALIST HUJJATLARINING ROLI**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 4-bosqich talabasi*  
O‘ktamova Movjuda Ilhom qizi  
[movjudauktamova@gmail.com](mailto:movjudauktamova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola AQSh mustaqilligidan so‘ng davlat konstitutsiyasini qabul qilishda federalist va anti-federalistlarning yangi konstitutsiyaga munosabatini o‘rganadi. Bunda Konstitutsiyani himoya qilish bo‘yicha 85 ta gazeta maqolasidan iborat bo‘lgan federalistik hujjalarning roli o‘rganib chiqiladi va huquqlar to‘g‘risidagi qonun loyihasining ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Maqola xalqaro munosabatlar va siyosatshunoslik sohasida tahsil oluvchi talabalar va qiziquvchilar uchun tavsiya etiladi.

**Kalit so‘zlar:** federalist, ratifikatsiya, Medison, Hamilton, Bill

AQSh Konstitutsiyasi butun dunyoda yuksak e’tirofga sazovor bo‘lgan siyosiy hujjalardan biridir. Bu eng qadimgi yozma federal Konstitutsiya bo‘lib, eng ko‘p va ba’zan so‘zma-so‘z ko‘chirilgan, shuningdek, eng qisqa Konstitutsiyalardan biridir. Konstitutsyaning qisqaligi, ehtimol, uning eng kuchli tomonlaridan biridir. Ta’sischilar hukumatning asosiy tuzilmasini oddiygina belgilab berdilar, ular uning tarkibiy qismlari va vakolatlari o‘rtasidagi munosabatlarni batafsil tasvirlamadilar. Masalan, Konstitutsiya Kongressga “davlatlararo tijorat”ni tartibga solish vakolatini beradi, lekin “davlatlararo tijorat” nima ekanligini aniqlamaydi. Bunday umumiy bayonotlar zamonaviy siyosiy, ijtimoiy va texnologik o‘zgarishlarga muvofiq talqin qilish uchun joy qoldiradi.<sup>5</sup>

Huquqlar to‘g‘risidagi qonun (The Bill of Rights) AQShdagi yangi federal hukumat o‘z vakolatlarini suiste’mol qilishi va shaxsiy erkinliklarni buzilishini oldini olish maqsadida Jeyms Medison tomonidan o‘nta tuzatishlarni AQSh Konstitutsiyasiga qo‘shilgan qonun loyihasi hisoblanadi. Huquqlar to‘g‘risidagi Bill uchta ta’sis hujjalardan biri hisoblanib, bunga Jorj Meyson tomonidan yozilgan Virjiniya Huquqlar Deklaratsiyasi (1776), shuningdek, Magna Carta, Huquq to‘g‘risidagi pettsiya, Ingliz huquqlari to‘g‘risidagi qonun va Massachusetts Ozodlik organi kabi ingliz hujjalari kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu qonun loyihasi har bir amerikalikning so‘z, matbuot va din erkinligi kabi fuqarolik huquq va erkinliklarini kafolatlaydi. Avvaliga palata 17 ta tuzatishni ma’qulladi va ulardan 12 tasini Senat ma’qulladi, so‘ngra 1789-yil avgust oyida hujjalar shtatlarga tasdiqlash uchun yuborildi. O‘nta tuzatish ratifikatsiya qilingandan so‘ng, Virjiniya qonun chiqaruvchi organi 1791-yil 15-dekabrda tuzatishlarni ma’qullagan oxirgi shtat qonun chiqaruvchi organi bo‘ldi.<sup>6</sup>

Konfederatsiya moddalaridan Konstitutsiyaga o‘tish juda munozarali vaqtini o‘z ichiga oldi. Konfederatsyaning mayjud zaif tomonlari ko‘plab davlatlararo mojarolarni keltirib chiqardi. Uning muammolari quyidagicha edi: har bir shtat, kattaligidan qat‘i nazar

<sup>5</sup> Karen O’Connor, Larry J. Sabato, Alixandra B. Yanus, American Government: Roots and Reform. Pearson, 2012.

<sup>6</sup> Bill of Rights institute. “The Bill of Rights: The 1<sup>st</sup> ten Amendments”. URL: <https://billofrightsinstitute.org/primary-sources/bill-of-rights>

Kongressda faqat bitta ovozga ega edi; Kongress soliq solish yoki xorijiy va davlatlararo savdoni tartibga solish vakolatiga ega emas edi; Kongress tomonidan qabul qilingan har qanday aktni amalga oshirish uchun ijroiya hokimiyati yo'q edi; Qonunlar Kongressda qabul qilinishi uchun 9/13 ovoz berishni talab qildi. Ellik besh delegat Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqish orqali ushbu muammolarni hal qilishga kelishib olishdi. Ratifikatsiya jarayonida bahs paydo bo'lib, Konstitutsiyani ratifikatsiya qilishni xohlovchi *federalistlar* va yangi tizimni o'z erkinliklariga tahdid solishidan shikoyat qilagan *anti-federalistlar* ikkiligiga bo'lindi.<sup>7</sup>

Ushbu qonun loyihasi bo'yicha munozaralar ancha uzoq vaqt muhokama ostida bo'ldi va shiddatli siyosiy muzokaralar, ommaviy nutqlar va hokimiyatga bo'lgan qarshiliklarda federalistik hujjatlar markaziy platforma bo'lib xizmat qildi. Pensilvaniyada bo'lib o'tgan Konstitutsiyani ratifikatsiya qilish bo'yicha yirik qarama-qarshiliklarda Shtat assambleyasidan bo'lganlar o'z elektratini Huquqlar to'g'risidagi Billni o'z ichiga olmagan Konstitutsiyada fuqarolarning huquqlarini qonun ostida xavfsiz deb hisoblash mumkinmi yoki yo'qligini ko'rib chiqishga chaqirdilar. Namoyish davomida esa konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishga hissa qo'shgan Jeyms Uilson cheksiz vakolatli hukumat va sanab o'tilgan va belgilangan vakolatlardan biri o'rtasidagi farqni ko'rsatadigan tezisni e'lon qildi. Birinchisi, shtat hukumat tomonidan tasvirlanganidek, o'z hokimiyatlarida suveren edi va har qanday vakolatni amalga oshirishda erkin edi. Ammo ikkinchisida, federal hukumat tomonidan tasvirlanganidek, faqat Konstitutsiyaga muvofiq o'z vakolatlarini amalga oshirishi mumkin edi.

Medison ham federalist hujjatlarida erkin hukumatda fuqarolik huquqlarining xavfsizligi diniy huquqlari bilan bir xillagini, u bir holatda manfaatlarning ko'pligini, ikkinchisida esa mazhablarning ko'pligidan iboratligini aytadi. Uning eng katta argumenti, qancha qiyin bo'lmasin hukumat har bir bo'lim bir-birini nazorat qilishi va muvozanatlashi uchun siyosiy erkinlikni ta'minlay oladigan tarzda tuzilishi kerakligini ta'kidlaydi.<sup>8</sup>

Medison ham, Hamilton ham Konstitutsiyaga Huquqlar to'g'risidagi Billning kerakmasligini, bu fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdan farqli o'laroq, ularni cheklaydigan pergament to'sig'ini yaratishni ta'kidlaydilar. Medison tomonidan yozilgan yana bir Federalist №10 hujjatida taklif etilayotgan Konstitutsiya "fraksiyalarning avj olishini yo'q qilish va yumshatish" uchun ishlab chiqilgan. "Fraksiya deganda men boshqa fuqarolarning huquqlariga zid ravishda birlashgan va umumiy ehtiros va manfaatga ega bo'lgan bir qancha fuqarolarni nazarda tutyapman, xoh ular butunning katta qismini, xoh kichik qismini tashkil etsin".<sup>9</sup> Medison fraksiya deb atagan narsa bugungi kunda manfaatlar guruhi yoki siyosiy partiya deb ataladi.

Uzoq davom etgan muzokaralarga qaramay, Hamilton 1-federalist hujjatlaridagi Konstitutsianing ijobiy tomonlarini omma oldida pozitiv fikr uyg'otishiga ketgan

<sup>7</sup> "The Debate for the United States Constitution". URL: [https://www.constitutionfacts.com/us-articles-of-confederation/the-great-debate/?srsltid=AfmBOorjNYHmkdquK1\\_SMtkj-p4tbmGe3GetDDNZDP395WYXi6yZt4G0](https://www.constitutionfacts.com/us-articles-of-confederation/the-great-debate/?srsltid=AfmBOorjNYHmkdquK1_SMtkj-p4tbmGe3GetDDNZDP395WYXi6yZt4G0)

<sup>8</sup> Federalist №51. "The Structure of the Government Must Furnish the Proper Checks and Balances Between the Different Departments". February 8, 1788. URL: <https://guides.loc.gov/federalist-papers/text-51-60#s-lg-box-wrapper-25493427>

<sup>9</sup> Federalist №10. "The Union as a Safeguard Against Domestic Faction and Insurrection". Nov 23, 1787.

URL: <https://guides.loc.gov/federalist-papers/text-1-10#s-lg-box-wrapper-25493273>

harakatlariga qaramay, №84 federalist hujjatlarida o'z fikrini o'zgartirdi. Jeyms Medison ham o'zining dastlabki pozitsiyasini o'zgartirib, oxir-oqibat Kongressga Huquqlar to'g'risidagi Billni taqdim etdi. Anti-federalistlar Konstitutsianing qabul qilinishining oldini olishda muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo'lalar ham, ularning Huquqlar to'g'risidagi Billni qo'shishga qaratilgan say-harakatlari zoye ketmadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bill of Rights institute. "The Bill of Rights: The 1<sup>st</sup> ten Amendments". URL: <https://billsofrightsinstitute.org/primary-sources/bill-of-rights> (Murojaat sanasi: 10.10.2024)
2. "Certain General and Miscellaneous Objections to the Constitution Considered and Answered" URL: <https://guides.loc.gov/federalist-papers/text-81-85#s-lg-box-wrapper-25493491> (Murojaat sanasi: 11.10.2024)
3. Federalist №10. "The Union as a Safeguard Against Domestic Faction and Insurrection". Nov 23,1787.  
URL: <https://guides.loc.gov/federalist-papers/text-1-10#s-lg-box-wrapper-25493273> (Murojaat sanasi: 09.10.2024)
4. Federalist №51. "The Structure of the Government Must Furnish the Proper Checks and Balances Between the Different Departments" <https://guides.loc.gov/federalist-papers/text-51-60#s-lg-box-wrapper-25493427> (Murojaat sanasi: 09.10.2024)
5. Karen O'Connor, Larry J. Sabato, Alixandra B. Yanus. "American Government: Roots and Reform". Pearson, 2012.
6. "The Bill of Rights: What Does it Say?". April 27,2023. URL: <https://www.archives.gov/founding-docs/bill-of-rights/what-does-it-say> (Murojaat sanasi: 10.10.2024)
7. "The Debate for the United States Constitution". URL: [https://www.constitutionfacts.com/us-articles-of-confederation/the-great-debate/?srsltid=AfmBOorjNYHmkdquK1\\_SMTkj-p4tbtGe3GetDDNZDP395WYXi6yZt4G0](https://www.constitutionfacts.com/us-articles-of-confederation/the-great-debate/?srsltid=AfmBOorjNYHmkdquK1_SMTkj-p4tbtGe3GetDDNZDP395WYXi6yZt4G0) (Murojaat sanasi: 11.10.2024)